



IDORALARARO MA'LUMOT ALMASHINUVINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MAJBURIYATLARI IJROSINI TA'MINLASH

ENSURING THE FULFILLMENT OF TAX OBLIGATIONS THROUGH IMPROVING INTER-AGENCY INFORMATION EXCHANGE

**¹Lukmanov Kaxramon
Abduraxmanovich**

*¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Soliq va soliqqa tortish"
kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi. **ORCID:** 0009-0008-6317-336X,
E-mail: kakhramonlukmanov@mail.ru*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada soliqdan bo'yin tovlash holatlarining oldini olish hamda soliq majburiyatlarining o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlashda zamonaviy nazorat vositalarining, xususan, idoralararo ma'lumot almashinuvi tizimining o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali soliq organlari faoliyatini avtomatlashtirish, ma'lumotlarning ishonchliligi va xolisligini ta'minlash, soliq tashabbuslarini muvofiqlashtirish hamda fiskal shaffoflikni oshirish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Eng. - This article analyzes the role and significance of modern control tools, particularly the inter-agency information exchange system, in preventing tax evasion and ensuring the timely and complete fulfillment of tax obligations. Additionally, attention is given to issues such as automating the activities of tax authorities through the effective use of information technologies, ensuring the reliability and impartiality of data, coordinating tax initiatives, and enhancing fiscal transparency.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ soliq ma'murchiligi, axborot tizimlari, avtomatlashtirish, integratsiya, yashirin iqtisodiyot.
❖ tax administration, information systems, automation, integration, shadow economy.

Kirish.

Soliq siyosatini izchil ravishda takomillashtirish, soliq tizimini soddalashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash orqali soliq to'lovchilar uchun qulay va ishonchli huquqiy muhit yaratish, davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlash, shuningdek, ijtimoiy adolatni mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ayrim soliq to'lovchilar tomonidan soliq bazasini yashirish orqali davlat budjetiga undiriladigan to'lovlarni kamaytirishga urinish holatlari mamlakat iqtisodiy barqarorligiga, davlat moliyasini samarali boshqarish tizimiga

salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, soliq qonunchiligiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida soliqdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish, soliq to'lovchilar uchun barqaror va ishonchli institutsional muhitni shakllantirish hamda bu orqali davlat budjeti daromadlarini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mazkur taklif va tavsiyalar soliq organlari, tegishli davlat idoralari hamda moliyaviy institutlar o'rtasida zarur ma'lumot almashinuvi tizimlarining samaradorligini

oshirishga, soliq tizimining raqobatbardoshligini mustahkamlashga hamda soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishda barqarorlik va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xalqaro ekspertlar Kamy Chandra, Tanushka Vaid va Pramod Varma tomonidan Xalqaro Valyuta Fondiga taqdim etilgan "Digital Public Infrastructure Can Drive a Sustainable Increase in Revenue Collection and Build Trust in Government" nomli hisobotda soliq to'lovchilar va hukumat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga qaratilgan muqobil yondashuvlar tahlil qilingan [4].

Italiyalik iqtisodchi Tansi Vito "Tax Evasion: Causes, Estimation Methods, and Penalties" nomli ilmiy maqolasida soliqdan bo'yin tovlashning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari hamda ushbu holatning davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonch munosabatlariga ta'sirini o'rgangan. Muallif ta'kidlashicha, agar soliqdan bo'yin tovlash holatlari jamiyatda keng tarqalsa, bu nafaqat fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchining susayishiga sabab bo'ladi [5].

Hjalte Fejerskov Boas, Niels Johannesen, Claus Thustrup Kreiner, Lauge Larsen va Gabriel Zucman tomonidan amalga oshirilgan "Taxing Capital in a Globalized World: The Effects of Automatic Information Exchange" nomli tadqiqotda, Daniyada avtomatik ma'lumot almashinuvi joriy etilganidan so'ng, soliq to'lovchilarning chet eldagi aktivlarini qaytarishi va daromadlarini ixtiyoriy ravishda oshkor qilish holatlari sezilarli darajada oshgani aniqlangan [6].

Rossiyalik soliq sohasidagi yetakchi olimlardan biri M.Mishustin o'z ilmiy tadqiqotlarida axborotlashtirish jarayonlarining soliq tizimi samaradorligiga ta'sirini tahlil qilgan. M.Mishustinning ta'kidlashicha, axborot manbalari oqimini oqilona boshqarish, ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, soliq tizimining barcha

elementlarini yaxlit mexanizm sifatida faoliyat yuritishini ta'minlash soliq organlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi[7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot doirasida tizimli tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, induksiya hamda deduksiya kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliqdan bo'yin tovlashga qarshi samarali kurash olib borish maqsadida zamonaviy nazorat mexanizmlarini joriy etish, idoralararo hamkorlikni mustahkamlash ushbu sohadagi ustuvor vazifalardan biridir. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda soliq to'lovchining daromadini aniqlash, soliqdan qochish holatlarining oldini olish, soliqqa oid xizmatlarni soddalashtirish, soliq yukini adolatli taqsimlash hamda huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish maqsadida soliq organlarini boshqa davlat idoralari va moliyaviy institutlar tomonidan zarur ma'lumotlar bilan ta'minlashga qaratilgan integratsiyalashgan axborot tizimlari joriy etilgan.

Jumladan, Janubiy Koreya Respublikasida soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish "bir darcha" (one-stop service) tamoyili asosida tashkil etilgan.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar asosan quyidagi uchta yo'nalishni qamrab oladi:

- soliqqa oid sertifikatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish;
- tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatga olish hamda bekor qilish;
- soliq hisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash.

Mazkur xizmatlar mamlakat bo'ylab faoliyat yuritayotgan 155 ta soliq xizmati markazi, shuningdek, HomeTax va Gov24 kabi raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi.

HomeTax tizimi ilk bor 2002-yilda ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan. Ushbu platforma orqali Janubiy Koreya Milliy soliq

xizmati mamlakat miqyosidagi 400 ga yaqin vazirlik va idoralar bilan 250 dan ortiq ma'lumot turini elektron shaklda o'zaro almashish imkonini yaratgan [8].

Bundan tashqari, HomeTax tizimida soliq to'lovchilar shaxsiy kabinetlari orqali davlat idoralariga tegishli ma'lumotlarni elektron ravishda yuborish, shuningdek, ularni raqamli shaklda saqlash imkoniyatlari yaratilgan.

Mamlakatimizda ham soliq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida davlat va soliq to'lovchilar manfaatlarining o'zaro mutanosibligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, axborot almashinuvi infratuzilmasini izchil rivojlantirish hamda ma'muriy yukni kamaytirish orqali ishonchli va barqaror mexanizmlarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.


Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 30-oktyabrdagi PQ-1843-sonli qarorida soliq ma'murchiligi tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish va ularni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi [2]. Mazkur qarorning qabul qilinishi, soliq majburiyatlarining yuzaga kelishi yoki bekor qilinishi bilan bog'liq axborotni tegishli vazirlik va idoralardan Soliq

qo'mitasiga elektron shaklda taqdim etish uchun zarur huquqiy asosni yaratdi.

Ushbu jarayonning dastlabki bosqichlarida 43 ta vazirlik va idora bilan ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish bo'yicha hamkorlik bitimlari tuzildi. Shu asosda, soliq to'lovchilarga oid majburiyatlar yuzaga kelishi yoki tugatilishi to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli vazirlik va idoralarning axborot tizimlaridan an'anaviy usulda Davlat soliq qo'mitasiga taqdim etila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-oktyabrdagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-sonli Farmoni soliq tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zaruriyatini ko'rsatib berdi [3].

Shu bilan birga, yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 133-moddasi bilan davlat organlari, muassasalar va tashkilotlarning soliq organlariga ma'lumot taqdim etish majburiyatlari huquqiy jihatdan belgilab berildi [1]. Mazkur me'yoriy hujjatlarni qabul qilinishi soliq tizimida vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan axborot almashinuvining samaradorligi va tezkorligini sezilarli darajada oshishiga xizmat qildi.



1-rasm. Soliq qo'mitasida 2020-2024-yillar davomida vazirlik va idoralar bilan yo'lga qo'yilgan integratsiyalar to'g'risida ma'lumot [9]

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2020–2024-yillar davomida Soliq organlari hamda vazirlik va idoralar o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro integratsiyalar soni izchil oshib borgan. Xususan, 2020-yilda 48 ta vazirlik va idora bilan integratsiya amalga oshirilgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 60 taga yetgan.

Umumiy hisobda, so'nggi besh yillik davr mobaynida integratsiyalar soni 25 foizga oshdi, bu esa avvalo hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar orqali davlat organlari axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish masalasiga ustuvor e'tibor qaratilganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ma'lumot almashinuvi an'anaviy usullar orqali emas, balki vazirlik va idoralarning axborot tizimlarini Soliq qo'mitasining axborot tizimiga to'g'ridan-to'g'ri integratsiya qilish orqali amalga oshirilmoqda. Ma'lumotlar tegishli idoralar tomonidan real vaqt rejimida taqdim etilishi hisob-kitob jarayonlarining avtomatlashtirilishiga xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida soliqlarni aniq hisoblash va o'z vaqtida to'lash jarayonlarini raqamlashtirish, shuningdek, soliq organlari tomonidan ko'rsatiladigan elektron xizmatlar qamrovini kengaytirishga imkon berdi.

Jumladan, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha vakolatli organ Kadastr agentligining axborot tizimi bilan o'rnatilgan integratsiya natijasida ijara shartnomalarini davlat soliq xizmati organlarida hisobga olish imkonini beruvchi ijara.soliq.uz elektron axborot tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim orqali 2024-yil davomida 605 mingdan ortiq ijara shartnomasi ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 84 foizga, 2023-yilga nisbatan esa 13 foizga oshgan. Shuningdek, mazkur shartnomalar asosida jismoniy shaxslar daromadlaridan 799,5 mlrd. so'm miqdorida daromad solig'i hisoblab chiqilgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 64 foizga,

2023-yilga nisbatan esa 5 foizga ko'paygan [10].

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishda idoralararo axborot almashinuvi hal qiluvchi omil ekanini tasdiqlaydi. Bizning fikrimizcha, axborot tizimlari o'rtasidagi o'zaro integratsiya nafaqat texnologik yechim, balki davlat boshqaruvi tizimidagi raqamli transformatsiya jarayonining muhim va strategik tarkibiy qismidir.

Bunday elektron hamkorlik fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun soliq majburiyatlari yuzasidan shaffof, aniq va nazorat qilinadigan muhit yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli yechimlar davlat organlari o'rtasidagi institutsional hamkorlikni mustahkamlab, ma'muriy yukni kamaytirish va inson omili bilan bog'liq xatolarni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda eng muhim, ustuvor va shu bilan birga dolzarb vazifalardan biri soliq to'lovchilarga soliq xizmatlarini yagona platforma orqali, o'zaro integratsiyalashgan va markazlashtirilgan tarzda taqdim etuvchi kompozit xizmatlar tizimini keng joriy etish va izchil rivojlantirishdan iboratdir.

Bunday zamonaviy yondashuv soliq organlari xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish bilan birga, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun vaqt va resurslarni sezilarli darajada tejash imkonini yaratadi. Shuningdek, mazkur tizimlar axborot oqimlarini samarali boshqarish, qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish hamda boshqaruvda shaffoflikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Ayni vaqtda, raqamli texnologiyalar asosida shakllantirilgan va doimiy ravishda takomillashtirib borilayotgan ushbu kompleks yondashuv jamiyat taraqqiyoti va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Kompozit xizmatlar tizimini keng joriy etish davlat budjetiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini

oshirish orqali budjet tushumlarining barqarorligini ta'minlash, soliq intizomini kuchaytirish va yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1843-sonli qarori. 2012-yil 30-oktabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-sonli Farmoni. 2020-yil 31-oktabr.
4. Kamya Chandra, Tanushka Vaid, Pramod Varma "Digital public infrastructure can drive a sustainable increase in revenue collection and build trust in government", *Finance and Development Magazine*, September, 2024.
5. Tansi Vito "Tax Evasion: Causes, Estimation Methods, and Penalties" November, 1993.
6. Hjalte Fejerskov Boas, Niels Johannesen, Claus Thustrup Kreiner, Lauge Larsen va Gabriel Zucman "Taxing Capital in a Globalized World: The Effects of Automatic Information Exchange" October, 2024.
7. Mishustin Mixail Vladimirovich. Mexanizm gosudarstvennogo nalogovogo administrirovaniya v Rossii. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. – M., 2003.
8. Korea National Tax Service "Tax Administration Capacity Building Program" May, 2025.
9. <https://soliq.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasining rasmiy veb-sayti.
10. <https://kadastr.uz> - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining rasmiy veb-sayti.